



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR HORIIYIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR HORIIYIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abduq'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBIZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIY BAHOLASH.....	248
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES	256
Kamola Bobonarova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	262
Zohidov Jamshid Botirxonovich	
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	



SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi.

ORCID: 0009-0001-1902-1763

E-mail: ulugbek.hakimov@soliq.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliq qarzdorligini undirish tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari hamda ushbu yo'nalishda rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida AQSh, Buyuk Britaniya, Estoniya, Janubiy Koreya va Avstraliya davlatlarida soliq qarzdorligini boshqarish va undirishda qo'llanilayotgan zamonaviy mexanizmlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda soliq qarzdorligini undirishning amaldagi tizimi baholanib, xalqaro tajribani milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari aniqlangan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, soliq qarzdorligini boshqarishda profilaktik yondashuvlarni kengaytirish, xavfga asoslangan monitoring tizimini takomillashtirish, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, qarzdor soliq to'lovchilarga nisbatan differensial yondashuvni qo'llash soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Maqolada ilgari surilgan taklif va tavsiyalar soliq qarzdorligini qisqartirish, davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlash hamda O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, soliq to'lovchi, soliq qarzdorligi, soliq ma'muriyatchiligi, xalqaro tajriba, davlat, daromad, budget.

Аннотация. В данной статье рассмотрены актуальные вопросы совершенствования системы взыскания налоговой задолженности, а также проанализирован опыт развитых стран в данной сфере. В ходе исследования проведен сравнительный анализ современных механизмов управления и взыскания налоговой задолженности, применяемых в США, Великобритании, Эстонии, Южной Корее и Австралии, а также раскрыты их специфические особенности. Кроме того, дана оценка действующей системы взыскания налоговой задолженности в Узбекистане и определены возможности адаптации международного опыта к национальной практике. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, системного подхода, научного обобщения и логического анализа. По результатам исследования обосновано, что расширение профилактических подходов к управлению налоговой задолженностью, совершенствование системы риск-ориентированного мониторинга, внедрение технологий искусственного интеллекта и анализа больших данных, а также применение дифференцированного подхода к налогоплательщикам-должникам будут способствовать повышению эффективности налогового администрирования. Предложенные в статье рекомендации направлены на сокращение налоговой задолженности, обеспечение устойчивости доходов государственного бюджета и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в Узбекистане.

Ключевые слова: налоговая система, налогоплательщик, налоговая задолженность, налоговое администрирование, международный опыт, государство, доход, бюджет.

Abstract. This article examines the current challenges of improving the tax debt collection system and analyzes the experience of developed countries in this field. The study provides a comparative analysis of modern tax debt management and collection mechanisms applied in the United States, the United Kingdom, Estonia, South Korea, and Australia, highlighting their distinctive features. In addition, the current tax debt collection system in Uzbekistan is evaluated, and the possibilities of adapting international best practices to the national context are identified. The research employs comparative analysis, a systems approach, scientific generalization, and logical analysis. The findings demonstrate that expanding preventive approaches to tax debt management, improving risk-based monitoring systems, introducing artificial intelligence and big data analytics technologies, and applying a differentiated approach to delinquent taxpayers can significantly enhance the effectiveness of tax administration. The recommendations proposed in the article are aimed at reducing tax debt, ensuring the stability of state budget revenues, and further improving tax administration in Uzbekistan.

Keywords: tax system, taxpayer, tax debt, tax administration, international experience, government, revenue, state budget.



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish hamda fiskal siyosatning samaradorligini oshirishda soliqlar muhim o'rin tutadi. Soliqlar davlatning asosiy moliyaviy resursi sifatida budjet daromadlarining asosiy qismini shakllantiradi. Shu bois soliqlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishi, soliq majburiyatlarining ixtiyoriy ravishda bajarilishi hamda soliq qarzdorligining oldini olish davlat moliya tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash va budjet daromadlari bazasini mustahkamlash maqsadida soliq tizimini isloh qilish hamda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2025-yilgi davlat budjeti ijrosiga bag'ishlangan yig'ilishda budjet daromadlarini to'liq shakllantirish, soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish iqtisodiy barqarorlikning muhim omili ekanligini alohida ta'kidlagan [1]. Biroq, mazkur islohotlarga qaramay, ayrim soliq to'lovchilarda soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilmasligi natijasida soliq qarzdorligi yuzaga kelmoqda. Bu esa davlat budjeti daromadlarining o'z vaqtida shakllanishiga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligiga hamda iqtisodiy munosabatlarning shaffofligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Soliq qarzdorligi nafaqat budjetga tushumlarning kechikishiga sabab bo'ladi, balki soliq intizomining pasayishi, insofsiz raqobat muhitining shakllanishi hamda soliq ma'muriyatchiligi xarajatlarining ortishiga ham olib keladi. Shu sababli soliq qarzdorligini samarali boshqarish, uning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish, qarzdorlikning oldini olish va undirish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida soliq qarzdorligini boshqarishda profilaktik choralar, xavfga asoslangan monitoring, raqamli tahlil vositalari, soliq to'lovchilar bilan samarali kommunikatsiya hamda qarzdorlikni restrukturalizatsiya qilish mexanizmlaridan keng foydalanilmoqda. Bunday yondashuvlar majburiy undirish choralari qo'llashdan ko'ra, soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishini rag'batlantirish orqali yuqori natijalarga erishish imkonini bermokda. Mazkur tajribalarni milliy soliq tizimi sharoitiga moslashtirish soliq qarzdorligini qisqartirish va budjet daromadlarining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, soliq qarzdorligining iqtisodiy va huquqiy mohiyatini tadqiq etish, uning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, amaldagi undirish mexanizmlarining samaradorligini baholash hamda xorijiy tajriba asosida ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlikni qisqartirish hamda soliq qarzdorligini samarali boshqarish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Mavjud ilmiy izlanishlarda soliq qarzdorligining iqtisodiy mohiyati, uning yuzaga kelish sabablari, undirish mexanizmlari hamda mazkur jarayonni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, avvalo, soliq qarzdorligining huquqiy tabiati va uni undirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Jumladan, V. Moroz soliq va soliq qarzi tushunchalarini o'zaro farqlash zarurligini asoslab, undirish obyekti bevosita soliq emas, balki soliq qarzi, penya hamda moliyaviy sanksiyalar ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, ushbu tushunchalarning qonunchilik va huquqiy ongda aniq chegaralanishi soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarish darajasini oshirishga hamda soliq to'lovchilarning davlat oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi [2].

Soliq qarzdorligini kamaytirishning iqtisodiy omillari M. Brostek tadqiqotlarida keng yoritilgan. Olim soliq qarzdorligini samarali boshqarish, eng avvalo, uning yuzaga kelishining oldini olishga qaratilishi lozimligini qayd etadi. Xususan, soliq yukining maqbullashtirilishi soliq qarzdorligi hajmining kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, qarzdorlikni undirish bo'yicha ishlab chiqilgan strategiyalar esa faqat belgilangan muddatlarda va tizimli ravishda qo'llanilgandagina yuqori samara berishini asoslaydi [3].

S. N. Alixin va D. A. Levachevalarning ilmiy qarashlarida soliq qarzdorligini undirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning fikricha, soliq qarzdorligini undirishda barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan bir xil yondashuvni qo'llash yetarli samara bermaydi. Aksincha, qarzdor korxonaning moliyaviy holati, to'lov qobiliyati hamda iqtisodiy faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqib differensial yondashuvni qo'llash undirish samaradorligini oshirish imkonini beradi [4].

I. G. Vinokhodova esa soliq qarzdorligini majburiy undirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasini tadqiq etib, qarzdorlikni qoplashda mol-mulkni xatlash va undan samarali foydalanish amaliyoti budjet tushumlarini ta'minlashning muhim vositalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi [5].



Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa soliq qarzdorligining yuzaga kelish omillari va ularni bartaraf etish masalalari asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, A. Tangriqulov va Sh. Toshmatov soliq qarzdorligining vujudga kelishini xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi to'lov intizomining buzilishi, debitor va kreditor qarzdorliklarning ortishi, moliyaviy rejalashtirishdagi kamchiliklar hamda bozor talabining o'zgarishi bilan izohlaydilar. Shuningdek, mahsulot va xizmatlar sifatining bozor talablariga mos kelmasligi ham soliq qarzdorligining shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi [6].

I. Niyazmetov soliq qarzdorligi muammosini soliq yukining tarmoqlar kesimidagi notekis taqsimlanishi bilan bog'laydi. Muallifning fikricha, qo'shilgan qiymat solig'i va mulkiy soliqlarning asosiy yukining sanoat korxonalari zimmasiga to'g'ri kelishi ushbu korxonalarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, soliq qarzdorligining ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois soliq yukini maqbullashtirish soliq qarzdorligini kamaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [7].

A. Jo'rayevning ilmiy tadqiqotlarida davlat budjeti daromadlarini shakllantirish jarayonida to'lov intizomi hamda budjet oldidagi boqimanda qarzdorlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar kompleks tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot mamlakatimizda budjet daromadlarini barqaror shakllantirishda soliq qarzdorligini kamaytirishning muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [8].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda asosan soliq qarzdorligining nazariy asoslari, yuzaga kelish sabablari va undirish mexanizmlarining alohida jihatlarini o'rganilgan. Biroq rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan zamonaviy undirish mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularni O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligi amaliyotiga moslashtirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, **abstrakt-mantiqiy** fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq **ma'muriyatchiligini**, xususan, soliq nazorati tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish samaradorligini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq qarzdorligi davlat budjeti daromadlarining o'z vaqtida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Soliq qarzdorligining ortib borishi davlatning ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklashi bilan birga, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitining buzilishiga ham olib keladi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda soliq qarzdorligini majburiy undirishdan ko'ra, uning yuzaga kelishining oldini olish va soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishini rag'batlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

1-jadval

Soliq qarzdorligini undirishning xalqaro tajribasi va O'zbekiston amaliyotining qiyosiy tahlili [9]

Mamlakat	Asosiy yondashuv	Afzalligi	O'zbekistonda qo'llash imkoniyati
AQSh	Qarzdorlikni bo'lib to'lash, individual yondashuv	Ixtiyoriy to'lovlar oshadi	Yuqori
Buyuk Britaniya	Risk tahlili, AI, segmentatsiya	Qarzdorlik oldindan aniqlanadi	Yuqori
Estoniya	To'liq elektron soliq tizimi	Qarzdorlik kamayadi	Yuqori
Janubiy Koreya	Big Data va sun'iy intellekt	Samaradorlik oshadi	O'rta
Avstraliya	Erta ogohlantirish, to'lovni kechiktirish (deferral), restrukturizatsiya va soliq to'lovchi bilan individual ishlash	Biznes faoliyatini saqlagan holda qarzdorlikni kamaytiradi	Yuqori

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar soliq qarzdorligini undirishda majburiy undirish choralari ko'ra profilaktik boshqaruv mexanizmlariga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.



OECD ekspertlarining fikriga ko'ra, soliq qarzdorligini samarali boshqarishning asosiy tamoyili qarzdorlik yuzaga kelganidan keyin uni undirish emas, balki uning vujudga kelishining oldini olishdan iborat. Shu maqsadda ko'plab davlatlarda soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini oldindan prognoz qilish, xavf darajasini baholash hamda differensial yondashuvni qo'llash amaliyoti keng rivojlangan.

AQSh tajribasida soliq qarzdorligini undirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlab soliq to'lovchiga elektron ogohlantirish yuboriladi, keyinchalik qarzni bo'lib-bo'lib to'lash yoki restrukturizatsiya qilish imkoniyati yaratiladi. Faqat ushbu choralar samara bermagan taqdirdagina majburiy undirish mexanizmlari qo'llaniladi. Mazkur yondashuv davlat va soliq to'lovchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda ixtiyoriy to'lovlar ulushini oshirishga xizmat qilmoqda.

Buyuk Britaniyada esa qarzdorlikni boshqarish HMRC tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan. Soliq to'lovchilar to'lov tarixi, moliyaviy holati va tavakkalchilik darajasiga qarab segmentlarga ajratiladi. Natijada har bir guruhga mos undirish strategiyasi qo'llanilib, ma'muriy xarajatlar qisqarishi bilan bir qatorda undirish samaradorligi ham oshmoqda.

Estoniya tajribasi esa soliq ma'muriyatchiligini to'liq raqamlashtirishning amaliy samaradorligini namoyon etmoqda. Soliq majburiyatlari, qarzdorlik va to'lovlar yagona elektron platforma orqali real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Bu esa soliq qarzdorligi yuzaga kelishining dastlabki bosqichidayoq tezkor choralar ko'rish imkonini yaratadi.

Janubiy Koreya soliq qarzdorligini boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat soliq ma'muriyati katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini prognozlaydi va qarzdorlik yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lgan subyektlarni oldindan aniqlaydi. Shu asosda ularga profilaktik tushuntirish ishlari olib boriladi hamda elektron ogohlantirishlar yuboriladi. Bunday yondashuv soliq qarzdorligining ortib ketishining oldini olish, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish va soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Avstraliya tajribasida esa soliq qarzdorligini undirishda soliq to'lovchining moliyaviy ahvolini hisobga oluvchi moslashuvchan yondashuv qo'llaniladi. Xususan, iqtisodiy qiyinchilikka duch kelgan, biroq faoliyatini davom ettirayotgan tadbirkorlik subyektlariga qarzdorlikni bo'lib-bo'lib to'lash, to'lov muddatini kechiktirish yoki individual to'lov rejalarini tuzish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, qarzdorlik yuzaga kelishi bilan avtomatik ogohlantirish tizimlari ishga tushiriladi va soliq to'lovchi bilan faol muloqot olib boriladi. Mazkur amaliyot tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini saqlab qolish bilan birga, davlat budjetiga tushumlarning uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, elektron xizmatlar ko'lamini kengaytirish va xavf tahliliga asoslangan soliq nazoratini joriy etish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, qarzdor soliq to'lovchilarni risk darajasiga ko'ra segmentatsiya qilish, sun'iy intellekt asosida qarzdorlikni prognozlash, avtomatik ogohlantirish tizimlarini yanada takomillashtirish hamda qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini keng qo'llash orqali soliq qarzdorligini undirish samaradorligini yanada oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, AQSh, Buyuk Britaniya, Estoniya, Janubiy Koreya va Avstraliya tajribalarida soliq qarzdorligini boshqarishning asosiy tamoyili majburiy undirish choralarini kuchaytirish emas, balki qarzdorlikning yuzaga kelishini erta aniqlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, soliq to'lovchilar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish hamda ularning moliyaviy holatidan kelib chiqib individual yondashuvni qo'llashdan iborat. Mazkur tajribalarni O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligi amaliyotiga bosqichma-bosqich tatbiq etish soliq qarzdorligini qisqartirish, budjet daromadlari barqarorligini ta'minlash va soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Mirziyoyev, Sh. M.** Davlat budjeti to'g'risidagi qonun iqtisodiyotni izchil rivojlantirishga xizmat qiladi // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. – 2025-yil 3-yanvar. <https://president.uz/oz/lists/view/7802>
2. **Мороз В. В.** Налоговое администрирование задолженности организаций по налогам и сборам: проблемы взыскания: дис. ... канд. экон. наук. – М., 2011.
3. **Brostek, M.** *Tax Debt Collection: IRS Needs to Better Manage the Collection Notices Sent to Individuals.* – United States Government Accountability Office, 2009. – P. 27.



4. **Алихин С. Н., Левачева Д. А.** Эволюция механизма принудительного взыскания задолженности перед бюджетом // *Налоги*. – 2018. – С. 28.
5. **Виноходова И. Г.** Совершенствование практики взыскания задолженности организаций по налогам и сборам // *Научная статья*. – 2019. – С. 22.
6. **Tangriqulov A., Xomma A., Toshmatov Sh., Norqo'ziev I., Roziqov N.** *Soliq qarzi va uni undirish: o'quv qo'llanmasi*. – T.: «Yangi asr avlodi» nashriyoti, 2010. – 51-b.
7. **Niyazmetov I.** Soliq yukining tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatiga va budjet daromadlariga ta'siri tahlili: nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. – 2008.
8. **Jo'rayev A.** Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari: doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2006.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>